

**MUHAMMAD RIZO OGAHİY ADABIY MEROSNING O'ZIGA
XOSLIGI. "TA'VIZ UL -OSHIQIN" MISOLIDA.**

Shabunaliyeva Himoyatxon O'tkirbek qizi

*Farg'ona davlat universiteti filologiya
o'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) ijodining o'ziga xos jihatlari "Ta'viz ul-oshiqin" devoni tahlili orqali yoritiladi. Devonning tarkibiy tuzilishi, mavzular tizimi, badiiy-uslub xususiyatlari, g'azallarning estetik qiymati, shoirning mumtoz an'analarga yangicha ruh olib kirishi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda Ogahiyning lirik merosi o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ogahiy, Ta'viz ul-oshiqin, g'azal, lirik qahramon, badiiy uslub, aruz, ishq lirikasi, Xorazm adabiy muhiti, mumtoz she'riyat.

XIX asrda Xiva xonligi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri – Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy edi. 1809 yilda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tavallud topgan adib: "Biz Xivada yashovchi yuz toifasidan bo'lgan Amir Eshimbiyning avlodidandirmiz", – deb yozgandi.

Erniyozbek mirob 1812 yilda vafot qilgandan keyin Olloqulixon Shermuhammad ibn Avazbey mirob o'g'li Munisni mamlakatning bosh mirobi qilib tayinlaydi. Munis Ogahiyning amakisi bo'lib, otasi o'rnida Ogahiyga 1829 yilgacha g'amxo'rlik qilgan. Uning bolalik va yoshlik yillari Qiyot qishlog'ida o'tdi va ulg'aygach Xivadagi madrasalardan birida tahsil ko'rdi. Arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, shuningdek klassik musiqa hamda tarix fanini qunt bilan o'rgandi. She'riyat olamida uning taxallusi Ogahiy bo'lib, lug'aviy ma'nosi - ogohman-sergakman demakdir. U mohir hattot bo'lib kufiy, rayhoni, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan.

Uning boy merosi devonlari, tarixnavislik asarlari, tarjimalari va ma'rifiy qarashlari bilan ajralib turadi. Shoirning "Ta'viz ul-oshiqin" devoni uning lirik dunyosini eng to'liq aks ettiruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Bu devon Ogahiyning badiiy tafakkuri, ishq falsafasi, ruhiy kechinmalari va shoir sifatidagi yetukligini ko'rsatadi.

"Ta'viz ul-oshiqin" devoni — shoirning lirik merosini mujassam etgan, ishq, vafodorlik, ma'rifat va ijtimoiy kechinmalarni she'riy uslubda yoritgan yuksak asarlar majmuasidir. Devondagi g'azallar Ogahiy poetikasining nozik badiiy tamoyillarini, xalqona ohangni va falsafiy mushohadani uyg'unlashtirganligi bilan e'tiborga

molikdir. Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti – „Ta'viz ul-oshiqin“ („Oshiqlar tumori“, 1872) bizgacha to'la yetib kelgan. Devon an'anaviy tartibda tuzilgan, 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muhammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje'band, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 oshiq va ma'shuq savol-javobi, 20 ta'rix, 19 qasida – jami 18000 misradan iborat. Devonga „Ash'ori forsiy“ nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she'ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundarijasi markazida ishq mavzusi turadi.

Ogahiy ijodining mavzu doirasi keng. Ammo u qaysi mavzuga murojaat qilmasin, ishqni chetlab o'tolmaydi. Ishq uning qalamida mavzuni yoritishda, g'oyani ilgari surishda asosiy badiiy vosita; she'riyatida ishq – iymon, e'tiqod, vatan, zakovat timsoli kabi lirik qahramonning o'y-kechinmalari, faoliyati, dunyoqarashini harakatlantiruvchi kuch. Ogahiy devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Shoir o'zi yashab ijod etgan murakkab davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baho berganda, insonparvarlik, xalqparvarlik nuqtai nazaridan yondashgan. Ogahiy –katta shoir. Uning qarashlari, idrok ko'lami ulkan. Ularning badiiy talqinlari diltortar, jozibali. Shu bois kichik maqolada ularning hammasi haqida yozish mushkul. Biroq uning ijodidagi ulkan haqiqatni uning, bitta she'ridan, bir bayt yoki misrasidan ham anglash mumkin. Ularning har birida Ogahiyning ogoh ko'ngli bor.

Ogahiy g'azallari o'zining ham mazmuniy, ham shakliy jihatdan yetukligi bilan adabiyot bo'stonida o'zining alohida o'rniga ega. Xususan, mazkur g'azalni o'qigan kitobxon ham, bir tomondan, oshiq qalbidagi tuyg'ularning sof va samimiyligidan ilhomlansa, boshqa tomondan, g'azalning go'zal va o'ynoqi ohangidan zavq tuyadi.

“Ey quyosh, yuzing ochgin, gam tunida zoringman.

Sidq ila nafas urgon subhi beguboringman.”

Ma'shuq quyoshga qiyoslanadi — husnning eng oliy timsoli.

Oshiq esa qorong'u tun — g'am, firoq, iztirob ramzi.

“Yuzing ochgin” — ma'shuq jamolini ko'rsatishini so'rash.

“Subhi begubor” — oshiqning pok, samimiy muhabbati tong kabi ravshan va beg'ubor. “Ey ma'shuq, jamolingni ko'rsat, men g'am tuni ichra zor qolganman. Men esa sadoqat bilan nafas oluvchi beg'ubor tongman”. Ogahiy ishqni insonni ma'naviy kamolotga yetaklaydigan ilohiy ne'mat sifatida talqin qiladi. Bu jihat Navoiy va Fuzuliy ishq konsepsiyasi bilan uyg'un, lekin Ogahiy unga hayotiylik, real insoniy kechinmalarni kuchli qo'shadi. Devon g'azallardagi asosiy mavzu — mohiyatan pok, ma'naviy, ruhiy ishqdir. Shoir ishqni insonni komillikka eltuvchi kuch, ruhiy yuksalish sababi deb biladi. Baytlardagi tuyg'ular samimiy, obrazlar esa nafis.

“San jamol-u hashmatda husn mulki shohisan.

Man malol-u kulfatda bandai nazoringman."

Bu baytda tasavvufiy ruh kuchli: ma'shuq — Olloh yoki ruhiy kamolot darajasi, oshiq esa quyi holatda banda.

"Sen go'zallikda sulton bo'lsang, men kulfatlar ichra senga mahkum banda holatidadir". Ogahiy g'azallarida sodda, xalqona mazmunning mumtoz vazn va qofiya tizimida berilishi shoir ijodini boshqalardan ajratadi. Uning lirik asarlarida xalq qo'shiqlariga xos ohangdorlik sezilib turadi. Bu g'azal Ogahiyning: kamtarligi, oshiqona sadoqati, tasavvufiy ruhiyati, firoq, najot, marhamat iltijosi kabi kayfiyatlarini yorqin aks ettiradi. Lirik qahramon o'z ojizligini tan olib, ma'shuqning yuksak jamoliga sajda etadi. Shu bois g'azal, tashqi ko'rinishda ishqiy bo'lsa-da, ichki mazmunida tasavvufiy: banda → Haq yo'lidagi oshiq timsoli.

Ogahiyning yana bir o'ziga xos g'azallaridan biriga nazar tashlashak, uning lirikasining o'ziga xos tomonlarini ko'rgan bo'lamiz.

*"Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay,
Ohima hech shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay."*

Oshiqning ko'z yoshlari cheksiz, oh-u fig'oni behisob. Agar buning dardiga malham bo'lmasa, mayli shunday bo'lsin, deb taslim kayfiyati ifodalanadi. Ushbu g'azal Ogahiy lirikasidagi eng e'tiborli g'azallardan biri sanaladi. Uning lirik qahramoni taqdiri ham o'zgacha. Oshiq tun-u kun ishq o'tidan nola-fig'on chekadi, jon-u jismi azoblanadi. Hatto u shu qadar ko'p ko'zyosh to'kadiki, bu yoshlar qirg'oqsiz ummonga aylanadi. Ammo ma'shuqadan hech qanday javob yo'q. U oshiq holiga beparvo yuraveradi. Ammo bir kun unga oshig'ing ishqingda daryo-daryo ko'zyosh to'kib o'ldi deyishadi. Shunda qiz javob beradi: "Mening ham ko'zyoshlarim daryo-daryo"... Bu g'azal — klassik lirikaning eng go'zal namunalaridan biri bo'lib: radifning maromli takrori, dardli ohang, lirik qahramonning samimiy iztiroblari, tashbeh, isti'ora, tazodlarning o'rinli qo'llanishi uni yuksak badiiy darajaga ko'taradi. G'azalning asosiy g'oyasi — oshiqning iztirobi va ma'shuq iltifoti yo'qligi oldida taslimiy, ammo samimiy nolishidir.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyotida o'ta yuksak badiiy va tarixiy ahamiyatga ega. Ogahiy she'riyati har qanday bachkanalikdan, o'rtamiyonachilikdan tamomila xoli yuksak ishqiy-tasavvufiy she'riyatdir. To'g'ri, unda falsafiy- tasavvufiy, ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-axloqiy ohanglar yo'q emas. Umuman, uning she'riyati rangin. Lekin bu mavzularning aksariyatini birlashtiruvchi narsa ishqdir, muhabbatdir. Ogahiy she'riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbeh-u qiyoslar silsilasi o'ziga xos, yangicha. Shoir har san'atning, har bir detalning, ungacha ilg'amagan qirralarini, borilmagan ma'naviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Xususan, "Ta'viz ul-oshiqin" devoni shoirning poetik mahorati, tasavvufiy falsafasi, ishq lirikasining betakror uslubini namoyon etuvchi

mukammal asardir. Devon oʻzida mumtoz anʼanalarni yangicha ruh bilan uygʻunlashtirgan, sof muhabbat va ruhiy poklikni kuylagan lirik merosdir. Ogahiyning bu devoni oʻzbek adabiyotining durdona sahifalaridan biri boʻlib, oʻquvchini hamon ruhiy quvvatlantirib kelmoqda. Ogahiy ijodining asosiy gʻoyalaridan biri — ilm, maʼrifat, adolat va halollikni targʻib qilishdir. U gʻazallarida ham, tarixiy asarlarida ham jaholatni qoralab, ilm egalari va shoirlarning jamiyatdagi oʻrnini ulugʻlaydi. Muhammad Rizo Ogahiy oʻzbek adabiyoti, tarixshunosligi va tarjimachilik taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk maʼrifatparvar shaxsdir. Uning oʻziga xos badiiy uslubi, tarixiy asarlarining ishonchliligi, tarjimalarining nafisligi va ilm-maʼrifat targʻibotidagi faoliyati uni XIX asr oʻzbek madaniy hayotining markaziy siymolaridan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ogahiy M.R. Taʼviz ul-oshiqin. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Xudoyberganov A. Xorazm adabiy muhiti va Ogahiy. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
3. Hasanov A. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2011.
4. Qoʻshjonov M. Ogahiy devonlari tahlili. – Toshkent, 1986.
5. Toʻxliyev B. Oʻzbek adabiyoti tarixi. — Toshkent, 2003.